Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 11 (2026) Published November 18, 2026

THE EDUCATION SYSTEM IN NEW UZBEKISTAN AND NEW APPROACHES AS THE BASIS OF EDUCATIONAL DEVELOPMENT

Korakhujaev Saydullo Mukhamadalievich
Master's Student at the National Pedagogical University of Uzbekistan

Abstract

The article provides a socio-philosophical analysis of the reform of the education system in New Uzbekistan and of the new approaches that have taken shape in this field. It examines the role of education in developing human capital and ensuring social progress, the changes at each stage of continuous education, the goals set in strategic documents and the existing problems of the sector, and substantiates conclusions and proposals for solving them.

Keywords

New Uzbekistan, education system, new approach, reform, continuous education, human capital, quality of education, digitalization, Third Renaissance, development strategy.

YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMI: YANGICHA YONDASHUVLAR TA’LIM TARAQQIYOTI ASOSI

Qoraxo‘jayev Saydullo Muxamadaliyevich
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti
Ilmiy rahbar: tarix f.b.f.d. (PhD), dots. E.D.Nazarova

Annotatsiya: *Maqolada Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish jarayoni va unga nisbatan shakllangan yangicha yondashuvlar ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Ta’limning inson kapitalini rivojlantirish va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashdagi o‘rni, uzluksiz ta’lim bosqichlaridagi o‘zgarishlar, strategik hujjatlarda belgilangan maqsadlar hamda sohadagi mavjud muammolar yoritilib, ularni hal etishga doir xulosa va takliflar asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, ta’lim tizimi, yangicha yondashuv, islohot, uzluksiz ta’lim, inson kapitali, ta’lim sifati, raqamlashtirish, Uchinchi Renessans, taraqqiyot strategiyasi.*

Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 11 (2026) Published November 18, 2026

СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И НОВЫЕ ПОДХОДЫ КАК ОСНОВА РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

Корахужаев Сайдулло Мухамадалиевич
магистрант Национального педагогического университета Узбекистана

Аннотация: *В статье с социально-философской точки зрения анализируются процесс реформирования системы образования в Новом Узбекистане и сформировавшиеся в этой сфере новые подходы. Раскрываются роль образования в развитии человеческого капитала и обеспечении прогресса общества, изменения на ступенях непрерывного образования, цели, определённые в стратегических документах, а также существующие проблемы отрасли; обосновываются выводы и предложения по их решению.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, система образования, новый подход, реформа, непрерывное образование, человеческий капитал, качество образования, цифровизация, Третий Ренессанс, стратегия развития.*

KIRISH.

Har qanday jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalo, uning intellektual salohiyati, ya’ni ta’lim tizimining sifati va samaradorligi bilan belgilanadi. Ta’lim bilim berish vositasi bo‘lish bilan birga, shaxsni ijtimoiylashtiradigan, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy vorisiylikni ta’minlaydigan va jamiyatning kelajagini shakllantiradigan ijtimoiy institut hisoblanadi. Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “faqat ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi” [5, 211].

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda, bu borada o‘nlab farmon, qaror, konsepsiya va dasturlar qabul qilindi. Ta’lim islohotlari orqali yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad sifatida belgilandi [5, 212]. Davlat rahbarining “taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir” degan fikri [13, 771] ushbu siyosatning g‘oyaviy asosini ifodalaydi.

Mavzuning dolzarbligi yana bir holat bilan izohlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga, ya’ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning

tarbiyasiga kiritilgan sarmoya jamiyatga 15–17 barobar miqdorda foyda keltirsa, bizda bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi [5, 211]. Demak, ta’limga ajratilayotgan mablag‘ hajmini oshirishning o‘zi yetarli emas, ta’limning mazmuni, maqsadi va tashkil etilishiga nisbatan yangicha yondashuvlar zarur.

Ushbu maqolaning maqsadi Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimida shakllanayotgan yangicha yondashuvlarning mazmun-mohiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning ta’lim taraqqiyotining asosi sifatidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Ta’limning jamiyat hayotidagi o‘rni masalasi falsafiy tafakkur tarixida doimo markaziy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Abu Nasr Forobiy ta’lim va tarbiyani o‘zaro farqlab, ta’lim nazariy fazilatlarni, tarbiya esa amaliy kasb-hunar va xulq-odob fazilatlarini hosil qilishini, har ikkalasi birlashgandagina yetuklik namoyon bo‘lishini ko‘rsatgan [13, 772]. Jadid ma’rifatparvari Abdulla Avloniy esa “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” deb yozgan [7].

G‘arb falsafasida J.Dyui ta’limni ijtimoiy hayotning zarurati, jamiyat o‘zini o‘zi yangilab borishining vositasi sifatida talqin qilgan [16]. T.Shuls va G.Bekker tadqiqotlarida ta’limga sarflangan mablag‘ iste’mol xarajati emas, balki inson kapitaliga kiritilgan investitsiya ekani asoslab berilgan [15; 17].

Mavzuning nazariy-metodologik asosini Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asari [5], shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun [1], Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi [2], 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [3] va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [4] tashkil etadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan N.Madreymova oliy ta’lim taraqqiyotidagi muammo va yechimlarni [13, 771–776], D.Begmatova ta’lim islohotlariga oid qonun hujjatlari va statistik ma’lumotlarni [9, 103–106], A.Abdullajonova ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlarini [6, 294–298], D.Bekmurodova strategik hujjatlarda ta’lim islohotlarining aks etishini [10, 72–75] yoritgan. S.Bazarbayev va A.Mansurov ta’lim

tizimining tuzilishi va rivojlanishini [8, 184–187], Q.Ibotov va A.Umarov uzluksiz ta’lim turlari va prinsiplarini [11, 365–367], D.Jamshidov Harakatlar strategiyasida ta’lim va fan sohasiga oid vazifalarni [12, 57–62] tahlil qilgan. B.Urazimbetova va O.Eshpulatov tadqiqotida ta’lim tizimidagi muammolar va ularning yechimlari ko‘rib chiqilgan [14, 1711–1714].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud ishlarda asosan islohotlarning me’yoriy-huquqiy asoslari va statistik natijalari bayon etilgan. Biroq yangicha yondashuvlarning o‘zi nimadan iborat ekani, ularning falsafiy-metodologik mazmuni va ta’lim taraqqiyotidagi tizim hosil qiluvchi o‘rni yaxlit tarzda yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik birligi, hujjatlarni tahlil qilish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Avvalo, ta’lim tizimi tushunchasiga to‘xtalish lozim. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq ta’lim turlari maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda maktabdan tashqari ta’limdan iborat [1]. Qonunda ta’lim ustuvorligining tan olinishi, ta’limning uzluksizligi va izchilligi, insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi kabi prinsiplar mustahkamlangan [1; 11, 366].

Xo‘sh, ta’limga nisbatan “yangicha yondashuv” deganda nimani tushunish kerak?

Fikrimizcha, yangicha yondashuv ta’limni davlatning ijtimoiy majburiyati sifatidagina emas, balki taraqqiyotning hal qiluvchi omili, inson kapitaliga kiritiladigan strategik sarmoya sifatida anglashni bildiradi. Jahon tajribasi ham shuni tasdiqlaydi: rivojlangan davlatlarda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta’lim tizimidan boshlangan [14, 1712]. Manbalar tahlili asosida Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasida quyidagi yangicha yondashuvlar shakllanganini qayd etish mumkin.

Birinchidan, insonga yo‘naltirilganlik. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [3]. Bu ta’limning maqsadi

mavhum “kadr tayyorlash” emas, balki har bir insonning salohiyatini ro‘yobga chiqarish ekanini anglatadi.

Ikkinchidan, uzluksizlik va tizimlilik. Ta’lim sohasidagi davlat siyosati bola tug‘ilganidan boshlab 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga qaratilgan [5, 211]. Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalar Uchinchi Renessansning “to‘rt uzviy halqasi”, tarbiyachi, muallim, professor-o‘qituvchi va ilmiy-ijodiy ziyolilar esa uning “to‘rt tayanch ustuni” deb ta’riflangan [5, 50]. Bosqichlar o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o‘quv yurtlari tasarrufiga o‘tkazilgani, 187 ta texnikum turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktirilgani [9, 105] ana shu yondashuvning amaliy ifodasidir.

Uzluksiz ta’limning har bir bosqichida qanday natijalarga erishildi?

Maktabgacha ta’limda bolalarni qamrab olish darajasi 28 foizdan 60 foizga yetkazildi, bog‘chalar soni 3 barobar ko‘payib, 14,2 mingtadan oshdi [5, 48–49]. Maktab ta’limida 11 yillik ta’lim qayta tiklandi, Prezident maktablari va ijod maktablari tashkil etildi [5, 49]. Maktab o‘qituvchilarining oylik maoshi to‘rt yil ichida bir yarim barobar ko‘paytirildi, natijada respublika bo‘yicha qariyb 15 ming nafar erkak o‘qituvchi maktablarga qaytdi [9, 104]. Oliy ta’limda Harakatlar strategiyasi doirasida 50 ta yangi oliy ta’lim muassasasi tashkil etildi, qabul parametrlari 2,5 marta oshirilib, yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 28 foizga yetdi [5, 50]. Taqqoslash uchun, 2019-yilda respublikada 114 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud bo‘lgan [13, 773], kelgusida esa ularning sonini 200 taga yetkazish vazifasi qo‘yilgan [5, 217].

Uchinchidan, ta’lim va tarbiya uyg‘unligi. “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan g‘oya asosida maktab ta’limi umummilliy harakatga aylantirilmoqda [5, 213]. Umumta’lim maktablarida birinchi marta “Tarbiya” fani joriy etildi. Asarda ta’kidlanganidek, “maktab – faqatgina ta’lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma’naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o‘rgatuvchi dargohga aylanishi zarur” [5, 214]. Bu yondashuv Forobiyning ta’lim va tarbiya birligi haqidagi qarashlari bilan hamohangdir.

To‘rtinchidan, kompetensiyaviy va amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv. Amaldagi ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari asosan o‘quvchini ta’limning navbatdagi bosqichiga tayyorlashga yo‘naltirilgani, ularni erkin fikrlash va mustaqil hayotga tayyorlash masalasi e’tibordan chetda qolayotgani tanqidiy qayd etilgan [5, 214]. Shu bois hududlardagi 500 ta maktabda Prezident va ixtisoslashgan maktablarning baholash tizimi joriy etilib, vaziyatni tahlil qilish, muammoni yechish, jamoada ishlash kabi amaliy mashg‘ulotlar ulushi 60 foizga yetkazildi [10, 73]. Maktablarda STEM ta’lim tizimini tatbiq etish bo‘yicha besh yillik dastur ishlab chiqilishi belgilandi [5, 212]. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning kengayishi va “hayot davomida ta’lim olish” tamoyilining ommalashuvi ta’lim mazmunini yangi bosqichga ko‘tarmoqda [6, 295].

Beshinchidan, raqamlashtirish. Ta’limni raqamlashtirish deganda ta’lim jarayonlarini boshqarish, sifat va samaradorlikni oshirish, ta’lim xizmatlaridan masofadan turib foydalanish uchun raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish tushuniladi [10, 73]. Uning falsafiy ahamiyati shundaki, raqamli ta’lim geografik joylashuvi yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat’i nazar, barcha ta’lim oluvchilar uchun teng imkoniyat yaratishga, ya’ni ijtimoiy adolat tamoyilini ta’minlashga xizmat qiladi. Interaktiv doskalar, kompyuterlar va onlayn ta’lim platformalarining joriy etilishi [8, 186] shu maqsadga qaratilgan.

Oltinchidan, xalqaro integratsiya va raqobatbardoshlik. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida qamrov darajasini kengaytirish, ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, xalqaro e’tirofga erishish kabi yo‘nalishlar belgilangan [2; 9, 104]. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida esa yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olishni kamida 50 foizga yetkazish, 10 ta oliy ta’lim muassasasini dunyoning eng nufuzli “TOP-1000” reytingiga kiritish, 30 ta oliygohning ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish maqsadlari qo‘yilgan [4; 10, 72]. Ta’limning inklyuzivligi va barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratish masalalarida UNICEF, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilinmoqda [6, 295].

Yettinchidan, o‘qituvchi maqomining qayta tiklanishi. Ko‘p yillar davomida o‘qituvchiga e’tibor yetarli bo‘lmagani ta’lim sifatiga ham, soha xodimlarining o‘z kasbiga munosabatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgani ochiq e’tirof etilgan [5, 215]. Bugungi kunda o‘qituvchi va murabbiylarning qadri, sha’ni va g‘ururini tiklash, ularni ma’naviy va moddiy qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan [5, 216]. Oliy ta’limda fan doktori ilmiy darajasiga ega professorlarning bazaviy lavozim maoshlari 2016-yilga nisbatan 3,2 barobarga oshirilgan [13, 774].

Sakkizinchidan, jamoatchilik ishtiroki. Ta’lim-tarbiyadagi muammolarni hal etishda ota-ona, maktab va mahalla hamkorligini yo‘lga qo‘yish, ta’lim sifatini nazorat qilishda keng jamoatchilik ishtirokini ta’minlash zarurligi asoslangan [14, 1714]. Bu ta’limni faqat davlatning emas, butun jamiyatning ishiga aylantirishni anglatadi.

Shu bilan birga, sohada qanday muammolar saqlanib qolmoqda?

Umumta’lim muassasalarining oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi 87 foizni tashkil etib, ayniqsa, chekka hududlardagi maktablarda bir qator fanlar bo‘yicha malakali o‘qituvchilar yetishmaydi [5, 215]. Tadqiqotchilar o‘quv dasturlarining mehnat bozori talablariga to‘liq mos kelmasligi, baholash tizimining ko‘proq nazariy bilimga asoslangani, shahar va qishloq maktablari o‘rtasida ta’lim sifati bo‘yicha tafovut mavjudligini qayd etadilar [10, 74]. Bundan tashqari, ijtimoiy fanlarga nisbatan uzoq yillar davomida “bir tomonlama texnokratik yondashuv” shakllangani, uzluksiz ta’lim bosqichlarida ijtimoiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha yaxlit konsepsiya yo‘qligi ko‘rsatib o‘tilgan [5, 219]. Bu holat falsafa va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning shaxs dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rnini qayta baholashni talab etadi.

Muhimi, oliy ta’lim sifatini oshirishda alohida, tizimsiz tarzda o‘tkaziladigan islohotlar va innovatsiyalar samarasiz bo‘lib, xorijiy tajribani milliy ta’lim tizimi yutuqlari bilan uyg‘unlashtirgan holda majmuaviy va tizimli yondashuvgina kutilgan natijani beradi [13, 775]. Oliy ta’lim tizimining vazifasi faqat talabalarga dars berishdan iborat emas, universitet va institutlar ilm-fan sohasida ham faol ishlashi, yoshlarni ilmiy ishlarga jalb etishi kerak [5, 218].

XULOSA.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, Yangi O‘zbekistonda ta’lim taraqqiyotning tamal toshi va inson kapitaliga kiritiladigan strategik sarmoya sifatida qaralmoqda, bu esa ta’lim falsafasidagi sifat o‘zgarishini anglatadi. Ikkinchidan, insonga yo‘naltirilganlik, uzluksizlik, ta’lim va tarbiya uyg‘unligi, kompetensiyaviy yondashuv, raqamlashtirish, xalqaro integratsiya, o‘qituvchi maqomini yuksaltirish va jamoatchilik ishtiroki ta’lim taraqqiyotining asosini tashkil etuvchi yangicha yondashuvlardir. Uchinchidan, ushbu yondashuvlar alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq yaxlit tizim sifatida amalga oshirilgandagina samara beradi.

Shu boisdan, butun uzluksiz ta’lim tizimini huquqiy tartibga soladigan yaxlit Ta’lim kodeksini ishlab chiqish [5, 219], chekka hududlar maktablarini malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, o‘quv dasturlarida amaliy ko‘nikma va erkin fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar ulushini oshirish, uzluksiz ta’lim bosqichlarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning yaxlit konsepsiyasini yaratish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.

6. Abdullajonova A.Sh. Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari // Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. 2026. Volume 3, Issue 9. – B. 294–298.

7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

8. Bazarbayev S.X., Mansurov A. O‘zbekistondagi ta’lim tizimi va uning rivojlanishi // European science international conference: Studying the progress of science and its shortcomings. 2025. – B. 184–187.

9. Begmatova D. Yangi O‘zbekistonda ta’lim islohatlari // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. 2026. Volume 3, Issue 2. – B. 103–106.

10. Bekmurodova D.F. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimidagi islohotlar. 2026. – B. 72–75. https://doi.org/10.5281/zenodo.18241883

11. Ibotov Q.N., Umarov A.A. O‘zbekiston ta’lim tizimining rivojlanishi. 2022. – B. 365–367. https://doi.org/10.5281/zenodo.6536008

12. Jamshidov D.D. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024. – B. 57–62. https://doi.org/10.5281/zenodo.11190072

13. Madreymova N. Yangi O‘zbekiston: yangi ta’lim tizimi va yangicha yondashuvlar ta’lim taraqqiyoti asosi. Oliy ta’lim taraqqiyoti: muammo va yechim // Oriental Art and Culture. 2023. Volume 4, Issue 1. – B. 771–776.

14. Urazimbetova B.X., Eshpulatov O.T. Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimimizdagi muammo va yechimlar // International Journal of Multidisciplinary Research in Science, Engineering and Technology (IJMRSET). 2022. Volume 5, Issue 11. – P. 1711–1714.

15. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 3rd ed. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.

16. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. – New York: Macmillan, 1916.

17. Schultz T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. 1961. Vol. 51, No. 1. – P. 1–17.